



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2024 - yil 6 - iyun

236-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi
asosida yer maydonini ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 16-apreldagi 232-son va Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 2-maydagi 01-01/62-son buyurtma xatlarini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi avtomobil ichki yo‘llarini qurish (rekonstruksiya qilish) uchun egallab turgan 20,5 gektar tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo'yicha tayyorlangan hujjatlar yig'majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo'yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib ma'lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali ikki ish kuni davomida davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
236-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-yil "Tashabbusli budjet" doirasida ichki yo‘l obyektlari xatlovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida ma’lumot

T/r.	Tuman nomi	MFY nomi	Yo‘l uzunligi (km)	Gektari
Jami			34,2	20,52
1	Kasbi tumani	"Yuksalish" MFY qabriston yo‘li	3,8	2,28
2		"Mesit" MFY Amir Temur ko‘chasi	3,8	2,28
3		"Mug‘lon MFY Mug‘lon qishlog‘i Hofiz, Xorazmiy, Akmal Ikromov, Bog‘i Eram va Fuzuliy ko‘chalari	3,8	2,28
4		"Qo‘ng‘irot" MFY Beshtojik, Shamkanti, Boytop, Batosh va Merkit ko‘chalari	3,8	2,28
5		"Tinchlik" MFY Ibn Sino, Shahrisabz va Cho‘lpon ko‘chalari	3,8	2,28
6		"Komilon" MFY Tinchlik, Do‘stlik, Komilon, Olmazor, Navruz, Yangiobod, Ko‘chabog‘, Org‘un, Sho‘rariq va Ilonzor ko‘chalari	3,8	2,28
7		"Maymanoq" MFY Do‘stlik va Bobur ko‘chalari	3,8	2,28
8		"Maymanoq" MFY Ziyoratgoh va Tokzor ko‘chalari	3,8	2,28
9		"Istiqlol" MFY Boy ko‘chasi	3,8	2,28